

KASHTACHILIK TERMINLARINING QO'LLANILISHI

Umarova Shaxlo Baxridin qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tayanch doktoranti

shaxloumarova97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kashtachilik terminlarining qo'llanilishi bilan bog'liq ma'lumotlar o'rin olgan. Shuningdek, kashta tikish bilan bog'liq so'z-terminlarga ham to'xtalib o'tilgan. Aynan Samarqand viloyatidagi kashtachilikning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Kashta, mato, bo'z, ilmoqli igna, "Chorchiroq", so'zana, kashtali bo'g'jama.

NAKİŞ TERİMLERİNİN KULLANIMI

Umarova Shakhlo Bakridin kızı,

Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü doktora öğrencisi

Özet. Bu makale nakış terimlerinin kullanımıyla ilgili bilgileri içermektedir. Ayrıca nakışla ilgili terimler de yer alıyor. Semerkant bölgesindeki işlemeciliğin özel özellikleri hakkında da bilgi verilmektedir.

Anahtar kelimeler. nakış, kumaş, gri, tığ iğnesi, "Chorchirok", sozana, nakışlı süs.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОВ ВЫШИВКИ

Умарова Шахло Бакридин кизи,

докторантка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье содержится информация, связанная с использованием терминов, связанных с вышивкой. Здесь также рассматриваются термины, связанные с вышивкой. Также дана информация об особенностях вышивки в Самаркандской области.

Ключевые слова. Вышивка, ткань, серый, крючок, игла, «Чорчирок», созана, вышитая фенечка.

USE OF EMBROIDERY TERMS

Umarova Shakhlo Bakhridin qizi,

doctor of philosophy student of the Uzbek-Finish pedagogical institute

Abstract. This article contains information on the use of embroidery terms. It also touches on the vocabulary related to embroidery. It also provides information on the specific features of embroidery in the Samarkand region.

Keywords. embroidery, fabric, gray, hook needle, "Chorchirok", word, embroidery knot.

Kashtachilik qo'lda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, mato (bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va b.) va charm (etik, mahsi, pichoq qini, kamar va b.) ga tikiladi. Kashta (fors.-chizilgan, tortilgan)-amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. (O'zb M.E, 195)

Kashta tikish aslida amaliy san'atning xotin-qizlarga xos turi bo'lib, uning shakllanishi ham uzoq tarixga borib taqaladi. «Xalq o'z orzu-umidlarini,—deb yozadi D.A.Faxretdinova, —ertaklarda ifodalanganidek, ayollarning nozik shoirona qalbi, ularning go'zallik haqidagi tasavvuri kashtalarda

aks topar va jaranglar edi. Kashtachilik ayollarning kayfiyatini, his-tuyg'ularini ifodalagan tasviriy san'atning ular qo'li yetadigan yagona turi edi; mana shundan esa kashtachilikning yuksak emotsionalligiga erishilgan» (Faxretdinova, 1972, 21). Samarqand (hozirgi Jizzax) viloyati G'allaorol tumani vakilasidan yozib olingan quyidagi misralar shundan dalolat beradi:

*Tepchima tikkan tentak qiz,
Chindaxiyol tikkan chinni qiz.
Jo'rmama tikkan jo'nday qiz.*

Uyni, umuman, binoni bezab turgan ulkan so'zanalardan choyxaltalar-u tuzliqlargacha, choyshab-u sochiqlardan tortib, eski-tuski saqlanadigan qopchiqlargacha-hammasi chevar ayollarning qo'llari bilan ziynatlanadi.

San'atshunos O.Xudoyorova Samarqand kashtachiligining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritir ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "Samarqand kashtalarida qadimgi so'g'diylar san'ati bilan yaqin bo'lgan arxaik xususiyatlarni ko'rish mumkin. Samarqand kashtalari Nurota va Buxoro kashtalaridan farqlanadigan jihatlariga egadir. Ularning guli yirik va uyg'un bo'lib, asosiy motivi barglar bilan o'ralgan rangsiz tonli davra turunjdir. XIX asr boshlarida to'qilgan rang-barang konsentrik va nursimon detallarga ega bo'lib, to'q ko'k rangdagi barglar, kashta doiralari esa kamalak yo'li bilan yoki o'rtacha och yashil, cheti och qizil rang bilan yorqinlashtirilgan. Samarqand kashtalarining tasviriy mahobati uning ko'rkamligi, sodda va yirik gullarining aniq tikilishidadir. Samarqand kashta kompozitsiyalarida eng xarakterlisi "Chor chiroq" kompozitsiyasidir. U markaziy turunjdin yo'naluvchi to'rt uzun guldin iborat bo'ladi. Kashtalari ingichka hoshiyali bo'lib, ikki barg gulli shoxning ketma-ket qaytarilishidan tuzilgan". Kashtachilik o'zbek xalqining qadimiy amaliy san'at turlaridan biri ekanligi, uning estetik-emotsional zavq olishga xizmat qilganligi va shu sohada ishlatilayotgan ayrim so'z-terminlar yuzasidan bildirilgan u yoki bu tarzda mulohazalar qator san'atshunoslarning ishlarida keltirilgan.

Kashtachilikning ayrim lingvistik xususiyatlari haqidagi, dastlabki, ma'lumotlar T.Tursunovanning monografiyasida o'z ifodasini topgan (Tursunova, 1978). Monografiyada kashtachilikning paydo bo'lish va tarqalishi, uni anglatuvchi so'z-terminlarning shakllanish tarixiga batafsil to'xtalib, kashtachilikka aloqador qator so'z-terminlarning ma'no xususiyatlari, kelib chiqish asoslari (etimoni), yasallish usullari haqida atroflicha asosli fikr yuritilgan.

Kasb-hunarmandlikning kashtachilik turi ham Samarqand viloyatida keng tarqalgan. Uning "bisoti"da bir ming ikki yuztadan ortiq so'z-termin (ma'lumotlar bizniki) mavjud ekanligi o'zbek tili leksik qatlamlarining, nihoyat, boyligini tasdiqlovchi dalildir. Mazkur leksik guruh tarkibida adabiy tilda ham, tadqiqot obyektimizda ham ma'no jihatdan bir-biriga mushtarak so'z-terminlar mavjudligini (ayrim fonetik o'zgachaliklar bilan, albatta) ta'kidlab o'tish lozim. Kashta, kashtachi, kashtachilik, so'zana, qo'chqorak, lolanusxa, yo'rma, chok kabilar. Shu bilan birga, adabiy til doirasiga kiritilmagan, biroq samarqandlik kashtachilar hamda aholi nutqida ishlatilayotgan qator so'z-terminlar ham qo'llaniladi (Ular ishimizning quyirog'ida o'z aksini topgan).

Kashtachilikda xilma-xil ma'nolarni anglatuvchi so'z-terminlar tarkib topgan. Fikrimizning isboti uchun kashtachilik amaliy san'atining tadqiqotchilaridan O.Xudoyorovanning so'zlarini keltiramiz: "Kashta to'qilgan choyshablar, ro'yijo (joypo'sh)lar yangi kelin-kuyov o'rni ustiga yopish uchun tayyorlangan. Ko'rpa-yostiqlik ustiga tutish (yopish) uchun esa takiyapo'sh (Nurotada shunday atalgan), taxsarp'o'sh, bolishpo'sh (Samarqandda), yostiqqo'sh (Shahrisabzda) tikilgan. Tanpokkun, sarpokkun yoki sochiqlar tayyorlanib, ulardan yuvinganda artinish uchun foydalanilgan. Kashta tikib bezatilgan bo'g'jomaga kiyim-boshlar o'ralgan. Ro'zg'orda sandalpo'sh va gavrapo'sh kabi buyumlar ham ishlatilgan. Uylarning devorlarini bezatadigan so'zanalalar, palaklar, gulko'rpalar, zardevorlar kabi turli kashta tikilgan buyumlar tayyorlangan. Maxsus tikilgan joynamoz ustida esa keksalar namoz o'qishgan. Erkak va ayollarning bosh kiyimlariga kashta tikilgan bo'lib, Farg'onada uni do'ppi, Shahrisabz va Samarqandda qalpoq deb atashganlar. Ayollarning ro'mollari yoki peshonabandaklari, erkaklarning beliga bog'laydigan belbog'lari (Farg'onada chorsi, Toshkentda qiyiqcha, Shahrisabzda belqars) kashta bilan bezatilgan. Shuningdek, choyxalta (choy uchun), pulxalta (pul uchun), shonaxalta (taroq uchun), oynaxalta

(oyna uchun) kabi buyumlarning barchasi yuzalarida kashtalar O'zining tikilish texnikasi, rasmlarining kompozitsiyasi, o'ziga xos gullari bilan bir-birlaridan farqlangan". Bu kabi so'z-terminlar majmuyini quyidagi mikroguruhchalar tashkil etgan:

1) kashtachilik buyumlari va ularning turlarini anglatuvchi so'z-terminlar: kashta, gulko'rpa, palak, choyshab va b.;

2) buyumlarga tikiladigan naqshlarni anglatuvchi so'z-terminlar: qo'chqorak, lolagul, islimi oy va b.;

3) kashta choklarini anglatuvchi so'z-terminlar: iroqi, yo'rma, sanama, chindaxayol va b.;

4) kashta tikish jarayonlarini anglatuvchi so'z-terminlar: tikish, choklash, qaviqlash va b.;

5) kashtachilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni anglatuvchi so'z-terminlar: kashtachi, yo'rmachi, dureshdo'z, popopchi va b.;

6) kashtachilik kasb-korlarini anglatuvchi so'z-terminlar: kashtachilik, zehdo'zlik, yo'rmado'zlik va b.;

7) ish qurollari va xomashyolarni anglatuvchi so'z-terminlar: ip, igna, bigiz va b.

Kuzatishlardan mazkur mikroguruhchalar tarkibidagi so'z-terminlar o'zaro xilma-xil leksik-semantik munosabatda ekanligi aniq bo'ldi. Shuning uchun quyida bunday munosabatlarning kashtachilik so'z-terminlari guruhida qay tarzda aks etganligi haqida fikr yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunova T. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi.-Toshkent: Fan, 1978.B. 116-117.
2. Xudoyorova O. O'zbek kashtachiligi.-Toshkent, 2000.B. 20-21.
3. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2002. B.195.